



BADIIY KULOLCHILIKDA SERVIS TO'PLAMLARINING TARIXI VA ZAMONAVIY RIVOJLANISHI

Ilmiy rahbar

Soliyeva Diyora Bobur qizi

Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi Andijon davlat universiteti

Sport va madaniyat fakulteti tasviriy va amaliy san'at kafedrasi o'qituvchisi

Rasulova Mushtariybegim Rustamjon qizi

Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi Andijon davlat universiteti

Sport va madaniyat fakulteti tasviriy va amaliy san'at

kafedrasi 2024-o'quv yili bitiruvchisi

Annotatsiya

Badiiy kulolchilik-qadimiy hunarmandchilik sohasi bo'lib, bugungi kunda nafaqat xalq amaliy san'ati na'munasi sifatida, balki bolalar estetik tarbiyasiga xizmat qiluvchi vosita sifatida ham katta ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, bolalar uchun mo'ljallangan kulolchilik buyumlari nafaqat amaliy jihatdan qulay va xavfsiz bo'lishi, balki ularning estetik didini shakllantiruvchi, tasavvurini boyituvchi vosita bo'lishi lozim. Servis to'plami orqali insonlarning kayfiyati, tasavvuri, estetik qarashlari va hissiy olamiga mos shakl, rang va bezaklar orqali mehr-muhabbat, quvonch, beg'uborlik obrazlari



ifodalangan. Shuningdek, milliylik va zamonaviylik uyg'unligida yondashilib, mos g'oya va obrazlar tanlanadi.

Kalit soʻzlar: Kulolchilik, loy, bezak , kulolchilik, servis.

Аннотация

Художественная керамика-древняя отрасль ремесленничества, которая в настоящее время имеет большое значение не только как образец народного прикладного искусства, но и как средство эстетического воспитания детей. Особенно изделия керамики, предназначенные для детей, должны быть не только удобными и безопасными в практическом отношении, но и служить средством формирования их эстетического вкуса и обогащения воображения. Через сервизные наборы с помощью форм, цветов и орнаментов, соответствующих настроению, воображению, эстетическим взглядам и эмоциональному миру человека, выражаются образы любви, радости и невинности. Также осуществляется подход в гармонии национального и современного, при котором подбираются соответствующие идеи и образы.

Ключевые слова: керамика, глина, декор, керамика, сервиз.

Annotation

Artistic ceramics is an ancient branch of craftsmanship which today has great importance not only as an example of folk applied art, but also as a means serving the aesthetic education of children. Especially, ceramic products intended for children should not only be convenient and safe in practical terms, but also serve as a means of shaping



their aesthetic taste and enriching their imagination. Through service sets, by means of forms, colors and decorations corresponding to people's mood, imagination, aesthetic views and emotional world, images of love, joy and innocence are expressed. Also, an approach is carried out in the harmony of national and modern elements, in which appropriate ideas and images are selected.

Keywords: ceramics, clay, decoration, ceramics, service set.

Amaliy san'at - bu estetik jihatdan jozibador bo'lgan, shu bilan birga, hayotda ma'lum amaliy vazifani bajaruvchi buyumlar va asarlarni yaratish faoliyatidir. U insonning ijodiy tafakkuri, didi va ehtiyojini birlashtirgan holda, kundalik hayotda foydalaniladigan vositalar orqali badiiy ifodani namoyon etadi. "Keramika san'ati – bu nafaqat hunar, balki badiiy tarbiyaning muhim vositasidir. Ayniqsa, bolalar uchun mo'ljallangan buyumlar ularning didini shakllantirishda katta ahamiyatga ega." Amaliy san'at orqali avloddan-avlodga nafaqat texnik ko'nikmalar, balki ruhiy meros ham uzatiladi. Shu bois, u san'atning faqatgina estetik sohasigagina emas, balki etnografik, tarixiy, sotsiologik tadqiqotlar uchun ham muhim manba hisoblanadi. Servis to'plamlarining kelib chiqishi insoniyat sivilizatsiyasi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ularning shakllanishi jamiyat taraqqiyoti, ijtimoiy ehtiyojlar, madaniy tafakkur va estetik qarashlar asosida rivojlangan. Dastlabki ovqat iste'mol qilish vositalari juda sodda bo'lgan – odamlar sopol, yog'och yoki toshdan yasalgan idishlardan foydalanganlar. Ular birinchi navbatda amaliy vazifani bajargan: ovqatni saqlash, pishirish yoki iste'mol qilish uchun xizmat qilgan. Xitoyda miloddan avvalgi 2000-yillarda sopol va proto-fayans



(ya'ni chinni uslubiga yaqin) idishlar ishlatilgan. Biroq haqiqiy chinni (porcelain) sifatida tanilgan material miloddan avvalgi 7–6-asrlarda paydo bo'lgan va Tang sulolasi (618–907-yillar) davriga kelib chinni ishlab chiqarish mukammallashgan. Miloddan avvalgi 2000 yillar – Xitoyda yuqori haroratda pishiriladigan sopol idishlar (fayanssimon) ishlatilgan. Miloddan avvalgi. 600 yillar atrofida – Proto-chinni (sopol va kaolin aralashmasidan yasalgan bardoshli idishlar) paydo bo'lgan. Xitoyda miloddan avvalgi 2000-yillarda yuqori haroratda pishiriladigan sopol idishlar yaratilgan. Haqiqiy chinni esa Tang sulolasi davriga kelib shakllangan. Ular nafaqat amaliy, balki bezakli xususiyatga ega bo'lgan. Aynan shu davrda bir xil uslubdagi, bezakli, to'plam sifatida ishlatilgan idishlar ilk servis buyumlari sifatida ko'riladi.

Qadimgi Rim va Yunoniston davrida esa ovqatlanish madaniyati yuqori darajada rivojlangan bo'lib, ovqat iste'moli faqat zarurat emas, balki ijtimoiy voqea sifatida qaralgan. Shu sababli dasturxon atrofidagi buyumlar o'ziga xos uslubda, san'at asari darajasida yasalgan. Bu davrga oid servis buyumlari o'zining murakkab shakllari, bezak elementlari, hayvoniy va geometrik naqshlar bilan ajralib turadi. Ayniqsa, Rim aristokratiyasida bronza va kumushdan ishlangan xizmat buyumlari mashhur bo'lgan. Bu buyumlar hashamat ramzi sifatida qadrlangan va marosimlarda ishlatilgan. O'rta asrlarda Yevropada xizmat to'plamlariga e'tibor pasaygan bo'lsa-da, XV–XVI asrlarga kelib, Osiyodan chinni mahsulotlar olib kirilishi bilan ushbu an'ana yana jonlangan. Xitoyning Ming sulolasi davrida ishlab chiqarilgan chinni idishlar yuqori sifati, noziknamo bezaklari va bardoshlilik bilan alohida ajralib turgan. Ular Yevropa saroylariga keltirilib, katta qadriyatga aylangan. Servis to'plamlarining dastlabki shakllari har bir hududning



iqlim sharoiti, mavjud tabiiy resurslari va xalqning ehtiyojlariga qarab farqlangan. Masalan, Sharq xalqlarida servis buyumlari ko'proq choy ichish madaniyati bilan bog'liq holda shakllangan. Yaponiyada minimalizmga asoslangan, tabiiy ranglar va soddaligi bilan ajralib turuvchi servis buyumlari yasalgan. Shuningdek, Markaziy Osiyo hududida ham xizmat buyumlari qadimdan mavjud bo'lib, ular odatda mahalliy kulollar tomonidan sopol dan yasalgan. O'zbek xalqining dasturxon madaniyatida servis elementlari — kosa, likop, togora, lagan va choynakning tutgan o'rni beqiyos bo'lgan. Har bir idishdagi naqsh, shakl va bo'yoqlar muayyan ramzni ifodalagan: baxt, baraka, farovonlik yoki tabiat timsollarini. Shu sababli servis buyumlari ko'pincha oilaviy meros sifatida saqlangan. Texnologiyaning taraqqiyoti bilan, ayniqsa XVII–XIX asrlarda kulolchilik pechlari va bo'yoqlarning sifati yaxshilangan, bu esa servis to'plamlarini ommaviy ishlab chiqarish imkonini bergan. Zavodlar ochilishi bilan oddiy xalq orasida ham bu buyumlar tarqala boshlagan. Natijada servis to'plamlari faqat saroylar va boy qatlam vakillari emas, balki oddiy oilalar dasturxonining ajralmas qismiga aylangan.

XIX asr oxiri va XX asr boshlariga kelib, sanoat inqilobi ta'sirida keramika va chinni ishlab chiqarish sohasida tub burilishlar yuz berdi. Bu davrda Yevropa va AQShda bir necha yirik fabrika va zavodlar paydo bo'lib, ular servis buyumlarini seriyali ishlab chiqarish yo'lini yo'lga qo'yishdi. Buning natijasida xizmat to'plamlari endi faqat zodagonlar emas, balki o'rta va ishchi tabaqalar uchun ham ommalasha boshladi. Yangi texnologiyalar tufayli chinni, fayans va sopol materiallari arzonlashtirildi, bezaklash usullari esa soddalashtirildi va avtomatlashtirildi.



XX asrda zamonaviy dizayn, ergonomika va modaning kirib kelishi bilan servis to'plamlarining shakli, bezaklari va funktsionalligi sezilarli o'zgardi. Minimalistik, funktsional va zamonaviy dizaynlar ustuvorlikka ega bo'la boshladi.

Hozirgi servis to'plamlari ko'pincha quyidagi xususiyatlarga ega: Ko'p funktsiyalik -bir idish bir nechta maqsadda ishlatilishi mumkin; Ekologik materiallar - tabiiy sopol, bambuk, qayta ishlangan materiallardan tayyorlanadi; Zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlashgan – pech, idish yuvish mashinasi uchun mos materiallar; Milliy motivlar va individual dizayn – hunarmandlar tomonidan yaratilgan, san'at asariga teng buyumlar; Avtorlik dizaynlari – har bir to'plam mualliflik yondashuvi bilan yaratiladi. Bugungi kunda dunyo bo'yicha hunarmandchilik, ayniqsa qo'lda ishlangan servis buyumlariga bo'lgan qiziqish yana oshmoqda. Bu esa massoviy ishlab chiqarishga qarshi turuvchi san'atkorona yondashuv sifatida qadrlanmoqda. O'zbekistonda ham so'nggi yillarda milliy sopol xizmat buyumlarini yaratishga bo'lgan e'tibor kuchaygan. An'anaviy naqshlar, milliy shakllar va zamonaviy dizayn uyg'unlashib, nafaqat mahalliy bozor, balki xalqaro yarmarkalarda ham e'tirof etilmoqda. Bu borada Rishton, G'ijduvon, Toshkent, Samarqand va Buxoro ustalari faol ishlamoqdalar.

Hunarmandchilikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha davlat siyosati servis to'plamlarini qayta tiklash va yangicha talqinda rivojlantirish imkonini yaratmoqda. Zamonaviy badiiy kulolchilikda servis buyumlari nafaqat amaliy vosita sifatida, balki san'at asari sifatida katta ahamiyat kasb etmoqda.

Zamonaviy servis to'plamlari dizaynida nafaqat estetik go'zallik, balki ergonomika, qulaylik va funktsional xususiyatlar ham muhim ahamiyatga ega.



O'zbekistonda badiiy kulolchilik an'analari saqlanib qolgan holda, yangi texnologiyalar bilan uyg'unlashmoqda. Masalan, Rishton kabi hududlarda gil topish va uy sharoitida keramika yaratish orqali milliy madaniyatimizni ifoda etuvchi noyob servis to'plamlari yaratilmoqda.

Xulosa: Amaliy san'at va ayniqsa servis buyumlari insoniyatning madaniy taraqqiyoti, estetik qarashlari va kundalik ehtiyojlari uyg'unligining yorqin ifodasidir. Ular oddiy maishiy vositadan badiiy va ramziy ahamiyatga ega meros darajasigacha rivojlangan. Turli tarixiy davrlar va hududlarda shakllangan bu buyumlar jamiyatning ijtimoiy, madaniy va texnologik o'zgarishlarini aks ettirib kelgan. Bugungi kunda esa servis to'plamlari zamonaviy dizayn, funksionallik va ekologik yondashuv bilan boyib, milliy an'analar bilan uyg'unlashgan holda rivojlanmoqda. Shu jihatdan ular nafaqat amaliy ehtiyojni qondiradi, balki madaniy merosni saqlash va uni kelajak avlodlarga yetkazishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Eshchanova D. "Keramika san'ati va dizayn asoslari." – T.: San'at, 2019.
2. M. Sh. Mannonova "O'zbek kulolchilik terminologiyasi" dissertatsiya
3. N.M.Ruziyev. "Badiiy kulolchilikda ashyolarda ishlash", "Hayot nashri - 2020" 2024 yilda chop etilgan. Amaliy san'at badiiy kulolchilik talabalari uchun o'quv qo'llanma.
4. Nosirova Z. "Kulolchilik san'atining rivojlanish bosqichlari." // "San'at va madaniyat" jurnali, 2020, №2.



5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Hunarmandchilikni rivojlantirish va hunarmandlarni qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, 2021-yil 17-dekabr, PQ–60-son.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16 avgust sanasidagi PQ-3219-son “O‘zbekiston badiiy akademiyasi faoliyatini rivojlantirish va yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-
7. R. Shamsutdinova “Vodiynoma” jurnali 2-son
8. R. Shamsutdinova “Vodiynoma” jurnali 3-son
9. Rahimova G. “Keramika materiallari va texnologiyasi.” – T.: Texnika, 2017.
10. Saida Ilyosova arxeolog “Farg‘onaning XI-XII asrlarga oid sirlangan idishlari” “San‘at” 3-son 2013 yil jurnali
11. Surayyo Aliyeva “Farg‘ona vodiysi kulolchiligining o‘ziga xos xususiyatlari” “San‘at” 1-son 2011 yil jurnali
12. Tursunov S. “Dizayn va badiiy tafakkur.” – T.: O‘zbekiston, 2011.
13. Xodjayev A. “O‘zbek xalq amaliy san‘ati.” – T.: Fan, 2005.
14. Y.Qosimov.Qadimgi Farg‘ona sirlari. N.; 1992
15. Дорофеева Е. Детская психология и художественное развитие ребенка. – М.: Просвещение, 2010.



INTERNET SAYTLARI

1. Art.ru
2. artsanat.uz
3. Kun.uz
4. Ziyonet